

5-Noyabr, 2025-yil

**TUMAN (SHAHAR) ICHKI ISHLAR ORGANLARI BO‘LINMALARI
FAOLIYATINING TASHKILY HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI.**

Qurbonov Xosilbek Almal o‘g‘li

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASI KURSANTI

Kalit so‘zlar: *Ichki ishlar organlari, tuman va shahar bo‘linmalari, tashkiliy-huquqiy asoslar, jamoat xavfsizligi, huquqiy tartibot, raqamli boshqaruv, profilaktika, fuqarolar bilan hamkorlik, kadrlar salohiyati, ochiqlik va shaffoflik.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tuman va shahar ichki ishlar organlari bo‘linmalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Unda ichki ishlar organlarining zamonaviy sharoitdagi asosiy vazifalari, ularning boshqaruv tizimidagi o‘rni, huquqiy tartibot va jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi roli yoritilgan. Maqolada shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, fuqarolar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Ключевые слова: *Органы внутренних дел, районные и городские подразделения, организационно-правовые основы, общественная безопасность, правопорядок, цифровое управление, профилактика, сотрудничество с гражданами, кадровый потенциал, открытость и прозрачность.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-правовых основ деятельности районных и городских подразделений органов внутренних дел. Раскрываются основные задачи органов внутренних дел в современных условиях, их роль в системе государственного управления, а также значение в обеспечении правопорядка и общественной безопасности. В работе приведены предложения по повышению профессионального потенциала сотрудников, внедрению цифровых технологий управления, укреплению сотрудничества с гражданами и обеспечению открытости деятельности органов внутренних дел.*

Keywords: *Internal affairs bodies, district and city divisions, organizational and legal framework, public safety, law and order, digital management, prevention, cooperation with citizens, personnel capacity, openness and transparency.*

Annotation: *This article analyzes the issues of improving the organizational and legal foundations of the activities of district and city divisions of internal affairs bodies. It highlights the main functions of these institutions under modern conditions, their place in the system of public administration, and their role in ensuring law and order and public safety. The article also presents proposals aimed at enhancing personnel competence, introducing digital management technologies, strengthening cooperation with citizens, and increasing the transparency of internal affairs bodies’ activities.*

KIRISH

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jarayonlarda ichki ishlar organlari, xususan, tuman va shahar miqyosidagi bo‘linmalar alohida o‘rin egallaydi. Chunki aynan shu bo‘linmalar aholi bilan bevosita muloqotda bo‘ladi, ularning tinchligi, xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlashda asosiy mas’uliyatni zimmasiga oladi. Shu sababdan ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini zamon talablari asosida takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari faoliyatini isloh qilish jarayonlari mustaqillik yillaridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bu tizimda tub o‘zgarishlar, tashkiliy va huquqiy jihatdan takomillashuv jarayonlari izchil davom etmoqda. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari orqali ichki ishlar tizimining vakolatlari, tuzilmasi, vazifalari va javobgarlik doiralari aniq belgilab berildi. Shu bilan birga, hududiy bo‘linmalarning — ya’ni tuman va shahar ichki ishlar organlarining — roli va mas’uliyati yanada kengaydi. Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘linmalari ichki ishlar tizimining eng quyi, lekin amaliy faoliyatda eng muhim bo‘g‘ini sanaladi. Chunki fuqarolarning aksariyati huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bevosita aynan shu darajada to‘qnashadi. Jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, pasport tizimini yuritish, shuningdek, profilaktika va fuqarolar bilan ishlash kabi ko‘plab masalalar aynan tuman va shahar darajasidagi organlar tomonidan amalga oshiriladi. Shu bois bu bo‘linmalarning tashkiliy tuzilmasi, ularning huquqiy maqomi, boshqaruv mexanizmlari va hamkorlik tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda tuman va shahar ichki ishlar bo‘linmalari faoliyatining samaradorligi nafaqat jinoyatchilik darajasi yoki huquqbuzarliklar soni bilan, balki aholi ishonchi, fuqarolar bilan o‘zaro muloqotning sifati, shuningdek, xizmatning ochiqligi va shaffofligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, xususan, raqamli texnologiyalar, elektron boshqaruv tizimlari, ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash va tahliliy dasturlarni joriy etish zarurati kun sayin ortib bormoqda. “Raqamli ichki ishlar” konsepsiyasi doirasida ko‘plab tashkiliy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, bu esa jarayonlarning shaffofligini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish hamda fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ichki ishlar tizimida inson omilining o‘rni beqiyosdir. Xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, ma’naviy barkamolligi, xizmat madaniyati va fuqarolarga nisbatan insonparvar munosabati tizim samaradorligining asosiy omillaridan biridir. Shu sababdan kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, xodimlarni motivatsiya qilish mexanizmlarini yaratish hamda xizmatda halollik va sadoqat tamoyillarini mustahkamlash ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Tuman va shahar ichki ishlar

bo‘linmalarining faoliyatini samarali tashkil etishda jamoatchilik bilan hamkorlik masalasi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Mahalla fuqarolar yig’inlari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlik jinoyatchilikni ildizidan bartaraf etish, profilaktika choralarini kuchaytirish, yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati va ochiqlik tamoyillari ichki ishlar organlari faoliyatiga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. Shu o‘rinda, tuman va shahar ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish faqat tashkiliy o‘zgarishlar bilan cheklanmasligi kerakligini alohida ta’kidlash zarur. Huquqiy asoslarni qayta ko‘rib chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, xizmat vakolatlari va mas’uliyat doirasini aniq belgilash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari va mahalliy davlat hokimiyati o‘rtasidagi vakolatlar chegarasini aniqlashtirish, ularning o‘zaro muvofiqlashgan faoliyatini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz mahalla”, “Mahallabay ishlash” kabi konsepsiyalar tuman va shahar ichki ishlar bo‘linmalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu dasturlar orqali mahalliy hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, profilaktika inspektorlarining faoliyatini kuchaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tuman va shahar ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish jamiyat xavfsizligini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosiy omilidir. Ushbu jarayonda ilmiy asoslangan yondashuvlar, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, inson huquqlariga rioya etish, xizmat madaniyatini yuksaltirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur.

ASOSIY QISM

Tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda davlat xavfsizligini ta’minlashdan iboratdir. Shu bois, ushbu organlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar organlarining faoliyati “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, ichki ishlar vazirining buyruqlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, tuman (shahar) bo‘linmalarining amaliy faoliyati mahalliy hokimiyat organlari bilan uzviy hamkorlikda olib boriladi. Mazkur hamkorlikni huquqiy jihatdan yanada mustahkamlash, vazifalar va vakolatlarni aniq chegaralash, boshqaruv jarayonlarida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish zarur. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ichki ishlar organlarini isloh qilish, ularning faoliyatini xalq manfaatlariga yo‘naltirish, ochiqlik va

“DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Noyabr, 2025-yil

shaffoflikni ta'minlash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da qabul qilingan qarorlar natijasida tuman (shahar) ichki ishlar bo'limlarida profilaktika inspektorlari, patrul-post xizmati, jinoyat qidiruv, kiberxavfsizlik hamda pasport va ro'yxatga olish bo'limlari faoliyati tubdan takomillashtirildi.

Biroq, amaliyotda hanuzgacha bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning barchasi tashkiliy-huquqiy asoslarning yetarlicha mukammal emasligi bilan bog'liq. Masalan:

- Bo'linmalar faoliyatida me'yoriy hujjatlar o'rtasidagi mos kelmasliklar;
- Ayrim vakolatlarning takrorlanishi yoki aniq chegaralanmaganligi;
- Xodimlarning huquqiy tayyorgarlik darajasi pastligi;
- Axborot texnologiyalaridan foydalanishning cheklanganligi;
- Mahalliy hokimiyat bilan hamkorlikning tizimli bo'lmaganligi.

Shu sababli, tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

Birinchidan, ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani zamonaviy talablarga moslashtirish lozim. Ayniqsa, “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonunning ayrim normalarini qayta ko'rib chiqish, xususan, mahalliy darajadagi vakolatlarni kengaytirish, javobgarlik mezonlarini aniqlashtirish, xizmat intizomini mustahkamlash zarur.

Ikkinchidan, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish muhimdir. Har bir bo'limda ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirish, rahbarlar va ijrochilar o'rtasidagi aloqani soddalashtirish, mas'uliyat tizimini aniq belgilash kerak. Bu orqali ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligi oshadi, xodimlar ishiga nisbatan ishonch kuchayadi.

XULOSA

Tuman va shahar ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamoat tartibini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ichki ishlar tizimining tayanch bo'g'ini sifatida davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanadi. Ushbu organlarning faoliyati qonuniylik, oshkoralik, mas'uliyat va fuqarolarga xizmat ko'rsatish tamoyillariga tayanadi. Hozirgi davrda tuman va shahar ichki ishlar bo'linmalarining samarali ishlashi ularning tashkiliy tuzilmasi, huquqiy asoslari, xodimlarning malakasi va jamoatchilik bilan o'rnatilgan hamkorlik darajasiga bog'liqdir. Shu bois ichki ishlar organlarida xizmat madaniyatini yuksaltirish, raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish, profilaktika va fuqarolarning huquqiy ongi bilan bog'liq ishlarni kuchaytirish zarur.

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG’OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Noyabr, 2025-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov O., & Usmonov, M. (2022). Raqamli transformatsiya va davlat boshqaruvi. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
2. Sultonov A. (2020). “Ichki ishlar organlarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish”. Huquqiy bilimlar jurnali, 3(12), 45-53.
3. Tursunov E. (2021). “Murojaatlar bilan ishlash jarayonida sun’iy intellektning roli”. Axborot texnologiyalari va jamiyat, 2(8), 29-37.